



YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI – KELAJAGIMIZ VA ISTIQBOLIMIZ POYDEVORI

*Urganch davlat universiteti Yoshlar bilan ishlash,
ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i Sh.Allaberganov
Mustaqil tadqiqotchi D.Abdullaev*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada respublikamizda yoshlar masalasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, zarur shart – sharoitlarni yaratib berish uchun yaratilgan mustahkam huquqiy baza to‘g‘risida ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *davlat, siyosat, yoshlar, ustuvor yo‘nalish, huquq, manfaat, ratifikatsiya, sessiya, hujjat, qonun.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о приоритетных направлениях государственной политики в сфере молодежи в нашей республике, мощной правовой базе, созданной для защиты ее прав и интересов, а также создания необходимых условий.*

Ключевые слова: *государство, политика, молодежь, приоритет, право, интерес, ратификация, сессия, документ, закон.*

Abstract: *This article provides information on the priority areas of state policy in the field of youth in our republic, a powerful legal framework created to protect their rights and interests, as well as to create the necessary conditions.*

Keywords: *state, policy, youth, priority, right, interest, ratification, session, document, law.*

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Haqiqatan ham, yoshlar masalasi har doim davlatimiz siyosati darajasidagi muhim masala bo‘lib kelgan. So‘nggi yillarda yosh yigit-qizlarimiz uchun yaratilayotgan keng ko‘lamdagi imkoniyatlar, ularning o‘qib-o‘rganishlari, qizg‘in faoliyat ko‘rsatishlari uchun ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo hamjamiyatini ham o‘ziga jalb etmoqda.

Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iste’dodini yuzaga chiqarish uchun har bir hududda zarur shart-sharoitlar muhayyo qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT



konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. Buning asosi sifatida bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etishini, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq ekanligini ta'kidladi.

Muxtasar aytganda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Yangi O'zbekiston” gazetasi bosh muharririga bergan intervyusida - “Ma'lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz”, deya ta'kidladi. Bu borada ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi. Bundan tashqari O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida davlat yoshlarga g'amxo'rlik masalaasida o'z zimmasiga g'oyat muhim majburiyatlarni olgani yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz «Yoshlar Konstitutsiyasi» deya e'tirof etilayotgani bejiz emas.

Umuman, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois O'zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Shu boisdan jamiyatimizdagi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o'rganilib, ular 3 toifaga ajratildi. Bunda yaxshi o'qiyotgan, tadbirkorligini yo'lga qo'ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyati bor, ijtimoiy faol bo'lgan 4,4 million yosh “yaxshi” toifaga, turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol 4,6 million yosh «o'rta» toifaga, davlatning g'amxo'rligi va e'tiborini kutayotgan hamda ko'makka muhtoj 396 ming nafar yosh “ahvoli og'ir» toifaga ajratib olindi. Endilikda, yoshlar bilan individual ishlashni jadallashtirish, jamiyatdan ajrab qolgan, hayotda o'z o'rnini topolmayotgan, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan yoshlarni faol hayotga qaytarish oldimizdagi eng muhim vazifa bo'lib turibdi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu



ma'noda, jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi kelajak avlodga, yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralayotgani bejiz emas.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 19 sentabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
2. strategy.uz
3. yuz.uz
4. nhrc.uz